

IQTISODIYOT SOHASIGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI

Qodirova Marjona Qilich qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Iqtisodiyot terminlarining xalq xo'jaligida ishlatalish darajasini o'rGANIB chiqish bu juda ham murakkab jarayon emas,balkim insonlar barchasi iqtisodiyot sohasini qisman bo'lsada anglab yetadilar ya'ni o'zlariga kerakli bo'lgan qismini.Iqtisodiyot sohasiga oid terminlarni qiyoslash va ularni tahlil qilish esa juda ham qiyin chunki qiyosiy tahlilning ham turlari juda ham ko'p, shuning uchun ushbu maqolada Iqtisodiyot sohasiga oid terminlarni Ingliz tili va O'zbek tillarida tahlil qilib ularni qanday ma'no anglatishi va ularni kelib chiqishini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, terminologiya,qiyosiy tahlil,kelib chiqishi.

Iqtisodiyot — yunoncha “oykos” va (“nemein” so‘zidan olingan) “nomiks” so‘zlari birlashmasidan kelib chiqqan bo‘lib, “oykonomia”, ya’ni uy xo’jaligini boshqarish degan ma’noni anglatadi. “Ekonomika” so‘zi ommaviy o‘zbek lug‘atiga o‘tilganda “iqtisodiyot” atamasiga o‘zgaradi. Iqtisodiyot cheklanmagan ehtiyojlarni, cheklangan resurslardan samarali foydalanib boshqarishni o‘rganuvchi fan hisoblanib terminalogik nuqtai nazardan o‘girib nazar soladigan bo’lsak bu soha xalq xo’jaligi uchun terminlarni tushunishni va iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va ularni amalga oshirishda ancha qulayliklarni beradi.

Muhokama

AUKSION - (lat.auction) - "kimoshdi" savdosi, ochiq savdo qilish. Bu savdo xizmati mahsulotni eng yuqori narxga ko'targan xaridor sotib oladi.

BANK - yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtiga qarab pul mablag'larini bir davolash yig'uvchi va uzluksiz aylanib turushini ta'minlovchi, korxonalarga va umuman pulga tekshirishga kredit, suda qilingan, tomonlar ishslash to'lovi va boshqahisob-kitob ishlarida vositachilik qilib turuvchi, oltin vachet el valyutasi bilan

bog'liq operatsiyalarni bajaruvchi kredit-moliya muassasi. B. pul qo'yuvchilarga ma'lumot foizini to'lash, qarz olganlardan davomiy foiz stavkasini undiradi va ana shu foizlar bo'yicha farq qiladigan bank foydasi mavjud.

BIZNES-(inglizcha business-ish, faoliyat, mashg'ulot) boylik, foyda orttirishga yo'naltirilgan ish, faoliyat. Biznes xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab yirik, o'rta va mayda turlarga bo'linadi. Xodimlarning o'rtacha soni va mahsulot hajmiga qarab ajratiladi.

BIZNESMEN-(inglizcha business-ish, man-odam)- biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs, korchalon.

BIRJA - (goll.beurs, nem. Borse-hamyon)- 1) mahsulot, valyuta va qimmatbaho qog'ozlarni ayirboshlashda, hisob va ma'lumot xizmatlarini amalga oshirishda faol qatnashuvchi tashkilot. Xizmat ko'rsatgani uchun vositachilik yig'imini oladi; 2) birja savdo-sotig'i bo'ladigan joy.

BOJ- (arab.-o'lpon, soliq) - bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlardan undiriladigan pul yig'imlari.

BROKER-(engl.broker)- mahsulot, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi rasmiy dallol. O'zi yoki mijozlar nomidan kelishuvlar, shartnomalar tuzish huquqiga ega shaxs.

VALYUTA - (ital. valuta. lat. valere- qadrlanmoq, qiymat)- mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz, pul)ga tenglashtirilgan to'lov vositalari.

VEKSEL - (nem.Wechsel, aynan-ayirboshlash)- qarz majburiyatlari xususida yozma holda berilgan maxsus ko'rinishdagi qimmatbaho qog'oz. qarz bergen tomon vekselda ko'rsatilgan muddat tugashi bilan qarzni talab qilish huquqiga ega.

IMPORT - (lat.importo-kiritaman) - 1) mamlakat ichiga foydalanish yoki sotish uchun chetdan olib kelingan xorijiy mahsulotlar; 2) kapital I.- xorijdan Oriental Renaissance: Innovative,mamlakatga kelayotgan kapital (kredit, zayom va boshqa); 3) chetdan olib kelingan mahsulotlarning umumiyligi soni va qiymati.

INVESTISIYA - (nem.investitlion, lat. investere- kiyintirmoq)- investor tomonidan biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun kapital mablag'larni, sarmoyalarni joriy qilish, foyda olish maqsadida sarf qilish. I. mamlakat ichida (ichki investisiya) va xorijiy mamlakatlarda (tashqi investisiya) amalga oshirilishi mumkin.

Moliya I.si- qimmatbaho qog'ozlarni xarid qilish, pul mablag'larini jamg'arish va boshqalarni, real moddiy ishlab chiqarishga sarflangan sarmoyalarni o'z ichiga oladi.

IPOTEKA - (yunon.hypotheke-garov)- qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan ko'chmas mulkni (yer, imorat va hokazo) garovga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akobitrov S. “Til va terminalogiya”, T-1968 y.
2. Anikina A. “Iqtisodiy atamalar lug'ati inglizcha-ruscha”, T-1993 y.
3. Bektemirov X., Begmatov E. “Mustaqillik davri atamalari”, T-2002 y.
4. Baratov Z. Iqtisodiy matnlarda neologizmning tarjima qilinishi. S-2013 y.
5. Husanov N., Mirahmedov Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish, T-2005 y.